

4-Laboratoriya: Ta’limiy interaktiv infografika vositalari yaratish

Ishdan maqsad: Ta’limiy interaktiv infografika vositalarini yaratishni o’rganish.

Ishning nazariy qismi.

Infografika - (lotin. Informatio – xabardor qilish, aniqlik kiritish, ta’riflash, grafika - tasvir) – bu murakkab va katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va aniq taqdim qilishga mo’ljallangan ma’lumotlarning grafik interpretatsiyasi (shakli), “ma’lumot beruvchi grafik dizayn” hisoblanadi.

Infografika keng qamrovli va juda ko‘p sohalarda qo‘llaniladi. Jumladan: geografiya, jurnalistika, ta’lim, statistika, texnik matnlarni aks ettirishda qo‘llaniladi. Infografika katta hajmdagi ma’lumotlarni ixchamlashtirish, unda aks ettirilgan predmetlarning o‘zaro munosabatlari, mantiqan bog‘lanishi va vazifalarini yaqqol ko‘rsata oladigan grafik yechim hisoblanadi.

Infografika vositalari illyustratsiya tasvirlargina bo‘lib qolmay balki grafiklar, diagrammalar, blok-sxemalar, jadvallar, xaritalar, ro‘yxatlarni va boshqa shu kabi ma’lumotlarning grafik tarzda aks ettiriladigan shakllarini o‘z ichiga oladi. Infografika asosan quyidagi qismlardan iborat:

- Sarlavha. Agar kerak bo’lsa, bu subtitr bilan birga bo’lishi mumkin;
- Tushuntirish va izohlash mezonlarini taqdim etadigan qisqacha matn;
- Xabar markaziga ishora qiluvchi va barcha grafik elementlarni va qo’llabquvvatlovchi tipografiyani o‘z ichiga olgan tanasi;
- Axborot manbai;
- Mualliflik kreditlari.

Infografika yaratish bosqichlari:

- Mavzu tanlash;
- Axborotni yig’ish
- Tizimlashtirish;
- Dizaynnini loyihalash;
- Infografikani yaratish

Ta’lim sohasiga oid infografikaga namunalar:



Infografikani yaratish uchun ko'plab internet servislar mavjud:


- piktochart.com
 - visual.ly
 - infogram.com – tadxedo.com
 - easel.ly va h.k.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Ta’limiy infografika yaratish uchun ta’lim sohasiga oid biror mavzuni tanlang.
 2. Tanlangan mavzu bo'yicha kerakli axborotni yig'ing.
 3. To'plagan axborotingizni saralab, tizimlashtiring.
 4. Yaratgan infografikangizni dizayn loyihasini eskizlarini tayyorlang.
 5. Infografika yaratuvchi vositalardan birini tanlang. Misol uchun, infogram.com
 6. <https://infogram.com/> ga kirib, gmail akkauntingiz orqali ro'yxatdan o'ting.

7. Onlayn servis infografika yaratish uchun bir qancha shablonlarni taqdim etadi. Yoki “blank template” ni tanlab o’z idealaringiz asosida infografikani yaratishingiz ham mumkin.

8. Tayyorlagan eskizlaringiz asosida, infogram onlayn servisi tomonidan taklif etilayotgan shablonlar bibliotekasidan kerakligini tanlang.



Misol uchun, agar biror ixtiro, voqeа, hodisani vaqt shkalasi bo’ylab rivojlanish tarixini yoritib beruvchi infografika yaratmoqchi bo’lsangiz, “Timeline” shablonini tanlang.

9. Ochilgan shablondagi ma’lumotlarni o’zingiz to’plaganlaringizga almashtiring.



10. Infografikani onlayn ko’rish va boshqalar bilan ulashish uchun “Share” tugmasi orqali onlayn ko’rish (view online) havolasidan foydalaning.

Nazorat savollari:

1. Infografika nima?
2. Infografika yaratish uchun qanday internet servislarni bilasiz?
3. Ta’lim sohasida infografikaning ahamiyatini tushuntiring.